

## **ALLOUDIN BUXORIYNING “FIQH-U-L-AKBAR” ASARIGA YOZGAN SHARHIDAGI AQIDAVIY MAVZULAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18719762>

**Abdullo Gafurov**

*PhD student at the International*

*Academy of Islamic Studies of Uzbekistan*

+998977324149

*47, Zarqaynar, Tashkent, 100002, Uzbekistan.*

*abdullohmagfur93@gmail.com*

Imomi A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobit al-Kufiy (80-150/699-767) rahmatullohi alayhi tobein, ulug' mujtahid va faqih, buyuk imom bo'lib, hanafiy mazhabining muassisidirlar. U zot islom aqidiga oid bir necha asarlar bitgan bo'lib, aqida ilmini “al-Fiqh al-akbar” (“Katta fiqh”) deb ataganlar. Ana shu nomda asar ham yozganlar. Shuningdek, “al-Fiqh al-absat” (“Batafsil fiqh”), “al-Olim va-l-mutaallim” (“Ustoz va shogird”) kabi risolalar bilan birga bir necha vasiyatlar – shogirdlariga qilgan pand-nasihatlari mavjud. Shogirdlari va mazhab ahli tomonidan u zot rivoyat qilgan hadisi shariflar bir qancha “Musnad”, “al-Asor” kabi asarlarda jamlangan.

“al-Fiqh al-akbar” (“Katta fiqh”) asari ahli sunnat va jamoat ta'limotining moturidiya yo'nalishining yuzaga kelishiga asos bo'lgan. “al-Fiqh al-akbar”ga bir necha marta sharhlar bitilgan, arabcha matni toshbosmalarda nashr qilingan. U o'zbek tilida ham bir necha marta e'lon etilgan, arabcha matni O'zbekistonda ham chop qilingan. Imomi A'zam Abu Hanifa rahimahullohning barcha asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

“al-Fiqh al-akbar” (“Katta fiqh”) qisqa hajmli asar bo'lib, sodda tilda bitilgan. Unda islomiy aqidning tamal mavzulari qamrab olingan, aytganimizdek, ular ahli sunnat va jamoat ta'limotining asosini tashkil qiladi. Ayrim aqidaviy masalalarga esa o'ta muhim bo'lgani sababidan kelib chiqib, Imomi A'zam Abu Hanifa rahimahulloh takror-takror, qayta-qayta murojaat qilganlar.

Alouddin Buxoriyning “al-Fiqh al-akbar” asariga yozgan sharhi ham ulamolar orasida shuhrat qozongan asarlardan hisoblanadi. Ushbu asar 2024-yilda birinchi marot Ummonda “Maktabatul g'onim” nashriyoti taarfidan nashr etilgan bo'lib, uni nashrga Muhammad Mus'ab Kulsum tayyorlagan. Asar 256 sahifadan iborat bo'lib, ikkita nusxa asosida nashrga tayyorlangan. Birinchi nusxa Batna shahridagi Xodabaxsh Sharq xalq kutubxonasida 1225 raqam ostida saqlanayotgan nusxa

bo'lib, 83 varaqdan iborat. Har bir varaq 19 qator, har birda 16-19 taga yaqin so'z joylashgan. Nusxa ko'chirilgan sanasi ham, nosixning ismi ham ko'rsatilmagan. Nusxa ustida "al-Fiqh al-akbar" sharhi, ummat chirog'i, imomlar imomi Alouddin Aliy Buxoriy tasnifi", deb yozilgan. "al-Fiqh al-akbar" matni sahifa yuqorisida qizil rangda yozilgan. Chekkalarida sharhdagi ba'zi so'zlarga ishora qilib ketilgan. Ba'zi so'zlar aslidan o'zgartirilgan.

Ikkinchi nusxa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 5859 raqam ostida saqlanayotgan nusxa bo'lib, 57 varaqdan iborat. Har bir varaq 15 qatordan iborat bo'lib, har bir varaq 15 qatordan iborat, har bir qatorda taxminan 12-15 ta so'z joylashgan. Oddiy xatda yozilgan bo'lib, nosixning ham, nusxa yozilgan tarix sanasi ham yozilmagan. Nusxa avvalida "al-Fiqh al-akbar" sharhi, Alouddin Aliy Buxoriy tasnifi", deb yozilgan. "al-Fiqh al-akbar" matni sahifa yuqorisida qizil rangda yozilgan. Salavot, istilohiy so'zlar, biror kimsaga Alloh taolodan rahm qilishini so'rab qilinadigan duo so'zlar qisqartirib yozilgan. Maslan, "محال" so'zi "مح", "نسلم" so'zi "نم" shaklida yozilgan.

Nosix nosixlar orasida mashhur bo'lgan qisqartmalar bilan ba'zi so'zlarga ishora qilib ketgan. Ba'zi sahifalarda so'zlar aslidan o'zgartirilgan (Sharhi al-Fiqhil akbar. Abu Abdulloh Alouddin Muhammad ibn Muhammad Buxoriy. Muhammad Mus'ab Kulsum tahqiqi ostida., 2024:58-59).

Alouddin Muhammad Buxoriy "al-Fiqh al-akbar" matniga sharh yozish sababini sharh muqaddimasida bildirib o'tgan. "al-Fiqh al-akbar" nomli qisqa asar ilohiyot va kalom ilmining asosiy g'oyalarini o'z ichiga olgani hamda Imom A'zam Abu Hanifaga tegishli bo'lgani uchun ushbu asarni sharhlashga qaror qilgan.

Sharh muallifning kamtarona urinishi samarasi bo'lib, Abu Hanifa rahimahullohning mazkur matnini tushuntirish va uning ahamiyatini ko'rsatish maqsadida yozilgan.

Sharhning ahamiyati shundaki, asarda muallif o'zi yashagan davrni yoritib beragan. Bu holat sharhda keltirilgan manbalar va olimlarning fikrlarini taqdim etishda namoyon bo'ladi.

Sharhda "al-Fiqh al-akbar" ning avvalgi sharhlovchilariga nisbatan tanqidiy yondashuv ham mavjud bo'lib, muallif ularning nomini oshkor qilmagan holda ularning ba'zi fikrlariga e'tiroz bildirgan. Masalan, Qur'oni karimning maxluq emasligi masalasida ba'zi shorihlarning so'zlari ajablanarli ekanini aytib, bu boradagi to'g'ri so'zni imom Nuruddin Sobuniy rahimahullohning "al-Kifaya fil hidaya" hamda Abul Muin Nasafiy rahimahullohning "Tabsiratul adilla" asarlaridan iqtibos keltirgan holda aytib o'tgan. Muallif rahimahulloh ba'zi aqidaviy masalalarda ham o'zining tahqiqini va xulosasini bayon qilgan. Masalan,

iymon, islom va iqrar mavzularida buni ko'rish mumkin. Ayni ushbu tahqiqni muallif o'zining "Risala fil e'tiqod" nomli kitobida ham keltirib o'tgan.

Yana shuni ham ta'kidlash muhimki, imom Alouddin Muhammad Buxoriy sharhda boshqa aqidaviy matnlardagi ma'lumotlarni ham keltirib, matnlarni bir-biriga solishtirganlar. Bu esa o'rganilayotgan mavzuni yanada tushunarli hamda quvvatli bo'lishiga turtki bo'ladi. Xususan, imom Najmuddin Umar Nasafiy rahimahulloh "Aqoid" matni bilan Abul Barakot Nasafiyning "Umdatul aqoid" matnini "al-Fiqh al-akbar" matniga solishtirilgan (Sharhi al-Fiqhil akbar. Abu Abdulloh Alouddin Muhammad ibn Muhammad Buxoriy. Muhammad Mus'ab Kulsum tahqiqi ostida., 2024:20-25).

"al-Fiqh al-akbar" asarida mavzular barcha aqida kitoblari singari iymon keltirish va unga e'tiqoq qilish lozim bo'lgan narsalar haqidagi ma'lumotlar bilan boshlangan. Bunda imom Abu Hanifa rahimahulloh so'zni oyati karimaga monand ravishqa tuzganlar. Matn quyidagicha boshlangan:

أَصْلُ التَّوْحِيدِ وَ مَا يَصِحُّ الْإِعْتِقَادُ عَلَيْهِ: يَجِبُ أَنْ يَقُولَ: آمَنْتُ بِاللَّهِ وَ مَلَائِكَتِهِ وَ كُتُبِهِ وَ رُسُلِهِ وَ الْبَعْثَ بَعْدَ الْمَوْتِ وَ الْقَدْرَ خَيْرِهِ وَ شَرِّهِ مِنَ اللَّهِ تَعَالَى وَ الْجَسَابَ وَ الْمِيزَانَ وَ الْجَنَّةَ وَ النَّارَ حَقًّا

"Tavhid (ilmi)ning asli (bu yerda)dir, unga e'tiqod qilish to'g'ri bo'ladigan narsalar (bu risolada)dir! (Inson) «Men Allohga, Uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, o'lgandan keyin qayta tirilmoqqa, taqdirning yaxshisini ham, yomonini ham Allohdan ekaniga imon keltirdim!», demog'i vojib bo'ladi. (Oxiratdagi) hisob-kitob, (amallar o'lchanadigan) tarozi, jannat va do'zax haqdir" (<http://ahlisunna.uz/al-fiqh-al-akbar/>).

Ushbu matnda iymon keltirish lozim bo'lgan narsalar Baqara surasining quyidagi oyati karimasiga mos ravishda zikr qilingan:

لَيْسَ الْبِرُّ أَنْ تُولُوا وَجُوهَكُمْ قِبَلَ الْمَشْرِقِ وَالْمَغْرِبِ وَلَكِنَّ الْبِرَّ مَنْ آمَنَ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ وَالْمَلَائِكَةِ وَالْكِتَابِ وَالنَّبِيِّينَ

**"Yaxshilik yuzingizni mashriQ yoki mag'rib tomonga burishingizda emas. Lekin yaxshilik kim Allohga, oxirat kuniga, farishtalarga, kitobga, Payg'ambarlarga iymon keltirsa..."** (Baqara surasi, 177-oyat) (Qur'oni Karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimas. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent. "Hilol nashr", 2022).

Imom Abu Hanifa rahimahulloh iymon keltirish lozim bo'lgan narsalarni zikr bo'lgach, Alloh taoloning sifatleri va ularning azaliy, qadim eani borasidagi bahsga kirishganlar. Kalom ilmida ma'lumki, Alloh taoloning sifatleri mavzusi, umuman olganda ilohiyot mavzusi aqida ilmining eng bahsli, ko'zga eng yaqqol ko'rinadigan qismi hisoblanadi. Ayni shu qismda islom diniga mansub barcha firqalarning farqi yaqqol ko'rinadi. Shu bosidan ham, barcha mutakallim ulamolar ushbu mavzuni kengroq yoritishga, tahqiq qilishga harakat qilganlar. Ayni shu nuqta ta'bir joiz bo'lsa, har qanday mutakallimning ilmiy salohiyatini ko'rsatadigan

qism hisoblanadi. Ayni shu ma'noda Alouddin Buxoriy rahimahulloh ham ayni shu mavzuni kengroq va daqiqroq yoritishga harakat qilganlar hamda bu borada ulamolarning xulosalarini bayon qilganlar. O'rni kelganda ulamolar o'rtasidagi bahsni bayon qilgan, masalani tahqiq qilishga va xulosasini aytishga diqqat qaratgan. Alouddin Buxoriy rahimahulloh Alloh taoloning kalomi, kalomning nafsiy va lafziy deb taqsim qilinishi borasida quyidagilarni aytadi:

“Agar nafsiy kalom haqiqiy, lafziy kalom esa majozdir. Haqiqat majozdan afzaldir”, deyilsa, bunga javob berib aytamizki, kalom so'zi ikkala ma'no borasida ham mushtarak lafz hisoblanadi. Bunga dalil — Alloh taoloning kalomi, degan nomni ularning birontasidan rad etib bo'lmasligidir. Chunki nafsiy kalom, deb Alloh taoloning sifati ma'nosida aytilsa, lafziy kalom deb uni Alloh yaratgan bo'lib, bandalar uni tuzmagan, balki Qur'oni karim lafzlarining tartibini Alloh taoloning o'zi tuzgan, ma'nosida tushuniladi”. (Sharhi al-Fiqhil akbar. Abu Abdulloh Alouddin Muhammad ibn Muhammad Buxoriy. Muhammad Mus'ab Kulsum tahqiqi ostida., 2024:115).

Shorih Alloh taoloning kalomi mavzusidan keyin aqida ilmidagi kata mavzulardan biri mutashobeh sifatlar sharhiga kirishadi. Bunda u zot Alloh taologa nizbatan ishlatilgan mutashobeh sifatlarni “al-Fiqh al-akbar” asarida kelgan matnlarni sharhlash ila bayon etgan.

Ma'lumki, “mutashobih” lug'atda “o'xshash”, “noaniq” va “qorong'u” kabi ma'nolarni anglatadi. Mutashobihning istilohiy ma'nosini Lomishiy rahmatullohi alayh bunday ta'riflagan:

المتشابه ما اشتبه به مراد المتكلم على السامع لاحتماله وجهين مختلفين و حكمه التوقف فيه

“Bir-biriga zid ikki xil ma'noning ehtimoli bo'lgani uchun so'zlovchining iroda qilgan narsasi eshituvchiga noaniq bo'lib qolgan so'zlar mutashobih deyiladi” (Ahmad ibn Abi Said Mulla Jiyvan “Nurul anvor”. Hofiz Sanaulloh Zohidiy tahqiq va ta'liqi. 2-jild, 263-bet).

Demak, mutashobih oyatlar deganda lafzidan ko'zlangan ma'nosi aniq-ravshan bo'lmagan oyatlar tushuniladi.

“al-Fiqh al-akbar” matnida ushbu mavzu quyidagicha bayon qilingan:

و لَهُ يَدٌ وَ وَجْهُ وَ نَفْسٌ كَمَا ذَكَرَهُ فِي الْقُرْآنِ. فَمَا ذَكَرَهُ اللَّهُ تَعَالَى فِي الْقُرْآنِ مِنْ ذِكْرِ الْوَجْهِ وَ الْيَدِ وَ النَّفْسِ فَهُوَ لَهُ صِفَاتٌ بِلَا كَيْفٍ وَ لَا يُقَالُ إِنَّ يَدَهُ قُدْرَتُهُ أَوْ نِعْمَتُهُ لِأَنَّ فِيهِ إِبْطَالَ الصِّفَةِ وَ هُوَ قَوْلُ أَهْلِ الْقَدْرِ وَ الْإِعْتِزَالِ وَ لَكِنَّ يَدَهُ صِفَتُهُ بِلَا كَيْفٍ وَ غَضْبُهُ وَ رِضَاُهُ صِفَتَانِ مِنْ صِفَاتِهِ تَعَالَى بِلَا كَيْفٍ

“Uning Qur'onda zikr qilganidek «yad», «vajh» va «nafs»i bordir. Alloh taolo Qur'onda «yad», «vajh» va «nafs»ini zikr qilgan ekan, ular Uning kayfiyatsiz (qandayligi noma'lum) sifatlaridir. Demak, uning «yad»i Uning qudrati yoki ne'mati deb aytilmaydi. Chunki, unda sifatni botil qilish bor. U esa



**qadariylar va mo«taziliylarning gapidir. Biroq, «yad»i Uning kayfiyatsiz sifatidir. Uning «g`azab»i va «rizo»si ham Alloh taoloning kayfiyatsiz ikki sifatidir”.**

Imom Alouddin Buxoriy rahimahulloh ushbu matni sharhida quyidagilarni aytgan:

“Imom Abu Hanifa rahimahulloh salbiy siftalar zikridan keyin Alloh taolaga nisbatan ishlatilgan mutashobeh ismlarni bayon qilganlar.

Bilingki, Alloh taolaga nisbatan ishlatilgan shu va shunga o‘xshash ismlarnig sobit ekani haqida nassda qat’iy dalillar kelgan bo‘lib, Alloh taolaga nisbatan ularning zohiriy ma’nosi tushunilmaydi. Chunki, Alloh taolo jism bo‘lishdan pok zotdir. Bularning bari mutashobeh sifatlardan bo‘lib, uning haq ekaniga imon keltiramiz, kayfiyatini idrok eta olmaymiz. Zero, mutashobehning hukmi unga taslim bo‘lish, bo‘yin sunish, umumiy tarzda maqsad qilingan ma’noning haq ekaniga e’tiqod qilish hamda dunyoda bundan aynan nima maqsad qilingani borasida tavaqquf qilishdir. Bu Ahli sunna val jamoa – sahobalar, tobeinlar va faqihlarning tutgan yo‘lidir” (Sharhi al-Fiqhil akbar. Abu Abdulloh Alouddin Muhammad ibn Muhammad Buxoriy. Muhammad Mus’ab Kulsum tahqiqi ostida., 2024:122).

Xulosa qilib aytganda, shorih Alouddin Buxoriy “al-Fiqh al-akbar” matnida bayon qilingan ma’nolarni ilmiy asosda, aqliy va naqliy dalillar bilan go’zal tarzda bayon qilib bergan. Muallif sharhda o‘zidan avvalgi ba’zi ulamolarning fikrlarini ham bayon etib, uni dalillar ila qo‘llab-quvvatlagan. Agar biror masalada ulardan faqrli fikrga ega bo‘lsa buni ham bayon qilib dalillar asosida tushuntirgan.